



Odam savdosiga qarshi kurashning xalqaro huquqiy masalalari

Toliboyev Samandar Sayid o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro huquq fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola odam savdosiga qarshi kurashning xalqaro huquqiy masalalarini o'rganshga biag'ishlangan. Odam savdosi global muammo sifatida nafaqat inson huquqlarini buzadi, balki xalqaro xavfsizlik va barqrorlikka jiddiy tahdid soladi. Maqolada odam savdosiga qarshi kurash bo'yicha qabul qilingan xalqaro hujjatlar, xususan, 2000-yildagi Palermo Protokoli, 1949-yildagi Odam savdosiga qarshi Konventsia va boshqa muhim xalqaro hujjatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro hamkorlikning ahamiyati va davlatning ushbu muammoni hal etishdagi sa'y-harakatlari o'rganiladi. Maqolada xalqaro tajribalar bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasining odam savdosiga qarshi kurashdagi milliy yondashuv ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: ekspluatasiya, mehnat ekspluatatsiyasi, reabilitatsiya, odam savdosi tarmog'i, jabrlanuvchi, trafikler, migratsiya ekspluatatsiyasi.

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию международно-правовых вопросов борьбы с торговлей людьми. Торговля людьми как глобальная проблема не только нарушает права человека, но и серьезно угрожает международной безопасности и стабильности. В статье анализируются международные документы, принятые по борьбе с торговлей людьми, в частности, Палермский протокол 2000 г., Конвенция против торговли людьми 1949 г. и другие важные международные документы. Также изучается важность международного сотрудничества и усилий государства по решению данной проблемы. Помимо международного опыта, в статье рассматривается национальный подход Республики Узбекистан в борьбе с торговлей людьми.

Ключевые слова: эксплуатация, трудовая эксплуатация, реабилитация, сеть торговли людьми, жертва, торговец людьми, миграционная эксплуатация.

Abstract: This article is devoted to the study of international legal issues of combating human trafficking. Human trafficking as a global problem not only violates human rights, but also seriously threatens international security and stability. The article analyzes the international documents adopted on the fight against human trafficking, in particular, the Palermo Protocol of 2000, the Convention against Trafficking in Persons of 1949 and other important international documents. Also, the importance of international cooperation and the state's efforts to solve this problem are studied. In addition to international experiences, the article discusses the national approach of the Republic of Uzbekistan in the fight against human trafficking.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Key words: *exploitation, labor exploitation, rehabilitation, human trafficking network, victim, trafficker, migration exploitation.*

Odam savdosi jinoyati, uning oqibatlarini, mazkur jinoyatni sodir etilishiga olib kelayotgan omillar bo'yicha ommaviy ahboror vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda juda ko'p so'z yuritilmoqda va mazkur jinoyat haqida fuqarolarda muayyan tushuncha mavjud. Jinoyatchilikning bu mudhish turiga qarshi kurashish va oldini olish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining bir qator tavsiyaviy va majburiy xarakterga ega bo'lgan hujjatlar qabul qilingan Xususan, "Odam savdosiga va uchinchi shaxs tomonidan tanfurushlikdan foydalanishga qarshi kurash to'g'risida"gi Konventsiya (1949-yil) "Qullik va qul savdosini, qullikka o'xshash institutlar va odatlarni bekor qilish to'g'risida"gi qo'shimcha Konventsiya (1956-yil), "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash haqida"gi Konventsiya to'ldiruvchi, "Odamlar ayniqsa, ayllar va bolalar savdosini to'xtatish, oldini olish va uning uchun jazo to'g'risida"gi bayonnoma (2000-yil) shu toifadagi xalqaro huquqiy hujjatlar hisoblanadi. Bundan tashqari odam savdosiga qarshi kurashish yuzasidan davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish maqsadida 2005-yil MDH doirasida "Odam savdosiga qarshi kurashish sohasida hamkorlikni kuchaytirish to'g'risida"gi kelishuv, 2006-yilda sakkiz a'zo mamlakat doirasida "Odam savdosiga qarshi kurashishning 2007-2010-yillarga mo'ljallangan dasturi" qabul qilingan edi. Odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish masalalariga oid milliy qinunchiligimizda ham o'zgarishlar bo'lmoqda Xususan, 2019-2020-yillarda mazkur yo'nalishdagi faoliyatni tatibga solish maqsadida 20 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bundan tashqari XMT va Xalqaro migratsiya tashkilotining 6 ta Konventsiya hamda protokollari artifikatsiya qilindi. Bolalar mehnati va majburiy mehnatga yo'l qo'yilganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi hamda Jinoyat kodekslariga o'zgartriish va qo'shimchalar kiritildi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda "Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida"gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. BMT ning statistic malumotlariga ko'ra, odamlar kamida 127 mamlakatdan sotuvga chiqmoqda va ular 137 davlatda ekspluatasiya qilinmoqda. Har yili turli hisob kitoblarga ko'ra, 20-40 million kishi quldorlikning zamonaviy shakli qurboniga aylanadi. Mazkur muammoning aniq ko'lamini bilish juda ham qiyin, zero, jinoiy faoliyat yashirin sodir etiladi. Aniq statistika mavjud emas, buni yuritib ham bo'lmaydi. Xalqaro darajada odam savdosi qurbonlarining atiga 0,04 foizigina aniqlangan. Afsuski dunyo bo'ylab shuncha keng qamrovli amaliyot, tegishli targ'ibot-tashviqot olib borishiga qaramay har yili millionlab insonlar "zamonaviy qulluk" yani odam savdosi qurboniga aylanmoqda. Ular orasida ayollar, qizlar, keksalar, hatto yosh bolalar borligi judayam achinarli. Ushbu jinoyatning rivojlanishiga turtki bolayotgan asosiy omillardan biri odamlarning chet elga borish vaishga joylashish haqida yetarli malumotga ega emasligidir. Achinarlisi, o'zga davlat,





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

begona bir muhitga tushib qolganlar mo'may daromad ilinjida og'ir jismoniy mehnatga yolanmoqda, ayollar esa tuban va fahsh ishlarga majbur etilmoqda. BMT malumotiga kora, dunyoda har yili tahminan 2 million 700 ming kishi odam savdosi qurboniga aylanmoqda. Xalqaro ekspertlarning baholashicha, ushbu jinoyatchilik natijasida olinayotga yillik daromad miqdori 7 milliard AQSH dollaridan oshib ketgan. Tashvishlanarlisi odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlarning 80 foizi ayol va bolalardir. Har yili dunyo bo'yich 600-800 ming nafar ayol va bolalar aldov yoli bilan xorijiy mamlaktlarga olib krtilib, sotib yuborilmoqda. Bugungi kunda dunyoda odam savdosini uchta keng tarqalgan turi mavjud bolib, bular : jinsiy ekspluatasiya, majburiy mehnat va odam azolarini sotishdir. Jinsiy ekspluatasiya uchun asosan ayollar sotiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, ayollarning 72 foizi shu maqsadda sotilar ekan. Majburiy mehnatga jalb qilinganlarning asosiy qismini esa erkaklar tashkil qilar ekan. Bu ko'rsatkich 85,7 foizini tashkil qilishi odam savdosi "tovarlari" umumiy sonining 1 foizdan kop bo'lmagan qismini tashkil qilar ekan. Bu turdagi tovarlarning yillik savdosi 1 mlrd. Dollordan ortiq miqdorda tashkil qilishi jinoyatning mazkur toifasi ham jiddiy muammo ekanini tasdiqlaydi. Bu jinoyatlarning asosiy sababi, tag zamiriga nazr tashlasak, ma'naviy, qashshoqlik, ochko'zlik, dunyoga haddan tashqari hirs qo'yish va nafsiga qul bolishlikni ko'ramiz. Mana shunday iflos, jirkanch jinoyat bizning mamlakatimizni ham chetlab o'tmayapti. Afsuski, fuqarolarimiz ham odam savdosi qurbonlariga aylanmoqda, buni ommaviy axborot vositalari ko'rib, eshitb turibmiz. bularning barchasi davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan ushbu illatga qarshi qat'iy choralar korishni, odam savdosiga jalb etilgan va undan jabr ko'rgan hamyurtlarimizni muhifaza etishni dolzarb vazifa qilib qo'ymoqda. Huquq ustuvor bo'lgan davlatimizda inson huquqlarini, qonunlar himoyasini amalga oshiruvch organlar borki, bu kabi illatlarni fosh etishda kechayu-kunduz tinmay ishlamoqdalar. O'zbekiston hukumati 2015-yilda odam savdosi bo'yicha 696 ta tergov, 372 ta jinoiy ish va 460 ta shaxsga nisbatan tergov ishlari olib borilganini malum qildi. 2016-yilda O'zbekiston xavfsizlik xizmatlari Turkiyaga qizlar savdosi bilan shug'ullangan jinoiy guruhni yoq qildi, shuningdek, O'zbekistonda tug'ilgan 17 nafar qizni Malayziyada jinsiy qullikdan ozod qildi. 2018-yilgi hisobot davrida hukumat sezilarli yaxshilanishlarni amalga oshirdi, ammo odam savdosiga barham berish bo'yicha minimal standartlarga hali ham kavob bermadi. 2017-yilda 2,6 million paxta terimchining 336 ming nafari majburiy mehnatga jalb qilingan. Mamlakat qurbonlarning shaxsini aniqlash, odam savdosida gumon qilinganlarni tergov qilish va jinoiy javobgarlikka tortish kamaygani haqida xabar berdi. Odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar uchun 2016-yilda 451 kishiga nisbatan 405 kishi sudlangan. XMT 2019-yilda paxta terimida bollar mehnati va majburiy mehnatga oid uchinchi tomon monitoringida majburiy terimchilar soni o'tgan yilga nisbatan 40 foizga kamyganini malum qildi. Hukumat hisobot davrida profilaktika ishlarini davom





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ettirdi. 2007-yilda hukumat Jizzaxdagi odam savdosiga qarshi kurashuvch NNT ga bepul ofis maydoni ajratdi. 2007-yilda 12 viloyatagi 200 dan ortiq O'zbekiston huquq tartibit idoralari xodimlar odam savdosiga qarshi kurash bo'yicha nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan otkazilga treningdan o'tdi, bu esa quyi bo'g'in xodimlarining bu borada xabardorligini oshirdi. Hukumatning odam savdosi bo'yicha idoralararo ishchi guruhi 2007-yilda 5 marta yig'ilish o'tkazdi va odam savdosiga qarshi kurash bo'yicha keng qamrovli qonun loyihasini ishlab chiqdi. U 2008-yil mart oyida parlament tomonidan qabul qilingan va birinchi prezident Islom Karimov tomonidan imzolangan. Davlat tomonidan aholini odam savdosining oqibatlar haqida xabardor qilish maqsadida axborot e'lonlari o'rnatildi, filmlar namoyish etildi va teatrlashtirilgan spektakllar qo'llab quvvatlandi. Shuningdek, 35 yoshgacha bolgan archa ayollar chet elga chiqishlarida erining ota onasidan rasmiy ruxsat olishlari talab etiladi. 2014-yilda mobil provayderlar O'zbekiston bo'ylab aholini odam savdosidan ogohlantirivchi SMS-xabarlan jo'natishni boshladi. 2020-yil fevral oyida Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligida "Cotton Campaigns" xalqaro kaolitsiysi vakillari O'zbekistonda mehnat huquqbuzrliklarining minimallashtirish va oldini olish, keng jamoatchilik, xalqaro va noxalqaro davlat tashkilotlari blan hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida yaqin hamkorlik kelishuviga erishildi. O'zbekiston prezidenti 2020-yil 18- avgustdagi qarori bilan "odam savdosiga qarshi kurashish to'g' risida"gi qonunning yangi tahrirda jabrlanganlar va sodir etilgan jinoyatlar holatlari to'g'risidagi malumotlarni oshkor qilishni tasdiqlovchi qonun qbul qilindi. Xalqaro migratsiya tashkiloti "Istiqbolli avlod "2020-yilda 200 dan ortuq tashkilotlar bilan hamkorlikda O'zbekiston jamiyatini habardor qilish maqdadida "Odam savdosiga qarshi hamkorlikda 30 kunlik" tadbirini otkazdi. Yuqorida takidlangandek, jabrlanganlarning ko'pchilik qismi xotinlar va qizlar hissasiga to'g'ri keladi. Respublikamizda xotin qizlar qo'mitasi vakili tomonidan berilga faktlarga ko'ra, 263 ming nafar xotin va qizlar chet elga chiqib ketishdi. Birgina Samarqand viloyatida ushbu ko'rsatkich 137 ming nafarni tashkil etadi. Xulosa qilib aytganda, odam savdosining har qanday ko'rinishiga qarshi kurashish xalqaro darajada jiddiy yondashuv va o'zaro huquqiy hamkorlik yo'lga qo'yilgan holda amalga oshirilsa o'z samarasini beradi

Zeroki, odam savdosi - kechirib bo'lmas jinoyat, og'ir gunohdir!





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1."Odam savdosiga qarshinkurashish to'g'risida"gi 2020-yil 17-avgustda qbul qilingan qonun
- 2.BMT ning 2000-yildagi Palermo Protokoli
3. 1949-yildagi Odam savdosiga qarshi Konventsiya
- 4."Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi
5. , "Odam savdosiga va uchinchi shaxs tomonidan tanfurushlikdan foydalanishga qarshi kurash to'g'risida"gi Konventsiya (1949-

